

NAMANGAN VILOYAT MINTAQALARDA YASHIL IQTISODIYOT MODELINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Musaxanov Qazixon Abdulxakim o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. katta o'qituvchi, PhD

ORCID: 0009-0004-3425-5084

Tel.: +998930524271; E-mail: mqozixon@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.393

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqalarda yashil iqtisodiyot modelini shakllantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish masalalari Namangan viloyati misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning nazariy-metodologik asoslari, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikning o'zaro integratsiyasi hamda hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi institutsional omillar tahlil qilingan. Shuningdek, hududda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, ekologik monitoringni takomillashtirish va "yashil" investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar aniqlangan. Maqolada yashil iqtisodiyot modelining institutsional, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-innovatsion mexanizmlari tizimli ravishda yoritilgan. Tahlillar asosida Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot modelini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik boshqaruv tizimini raqamlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, institutsional mexanizmlar, hududiy iqtisodiyot, yashil investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, resurs tejankorlik, davlat-xususiy sheriklik, ekologik innovatsiyalar, Namangan viloyati, barqaror rivojlanish.

IMPROVING THE INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY MODEL IN NAMANGAN REGION

Qazikhon Abdulkhakim ugli Musakhanov

Senior Lecturer, PhD, Tashkent State University of Economics

ORCID: 0009-0004-3425-5084

Tel.: +998 93 052 42 71; E-mail: mqozixon@gmail.com

Abstract. This article examines the improvement of institutional mechanisms for developing a green economy model in regions, using Namangan Region as a case study. The study analyzes the theoretical and methodological foundations of the green economy, the integration of environmental sustainability and economic efficiency, and the institutional factors affecting regional development. It also identifies problems related to the use of renewable energy sources, the development of waste recycling systems, the improvement of environmental monitoring, and the attraction of green investment. The article systematically presents the institutional, economic, environmental, and socio-innovative mechanisms of the green economy model. Based on the analysis, scientific and practical recommendations are developed for Namangan Region, including expanding public-private partnership mechanisms, encouraging environmental innovation, introducing resource-saving technologies, and digitalizing environmental governance.

Keywords: green economy, environmental sustainability, institutional mechanisms, regional economy, green investment, renewable energy, environmental security, resource efficiency, public-private partnership, environmental innovation, Namangan Region, sustainable development.

Kirish

So'nggi yillarda jahonda ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi hamda iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq xavflarning ortib borishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o'sishning innovatsion mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va hududiy iqtisodiyotning resurs tejamkor modelini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, mamlakatda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish tarkibi hamda institutsional boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi muhim axamyat kasb etadi.

Namangan viloyati iqtisodiy va demografik salohiyati yuqori bo'lgan hududlardan biri sifatida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, hududda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik muammolarni kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish hamda "yashil" investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq masalalar mavjud. Bu esa viloyatda yashil iqtisodiyot modelini shakllantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy model sifatida shakllangan. Ushbu yo'nalishning nazariy-metodologik asoslari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Hususan H. Daly, J. N. Stern, D. North, E. Barbier, Q. Raximov, A. Abdug'aniyev, B. Xodiyev, A. Vahobov, N. Mahmudov, S. G'ulomov, V. Leksin va boshqalar tomonida yashil iqtisodiyotning hududiy jihatlari, ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, hududiy ekologik siyosatni takomillashtirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va ekologik innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot modelini shakllantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni o'rganishning kompleks metodologik yondashuvlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy, ekologik va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va institutsional iqtisodiyot nazariyalari tashkil etadi. Jumladan, Herman Dalyning ekologik muvozanat va resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasi, Douglass Northning institutsional rivojlanish nazariyasi hamda Nicholas Sternning iqlim o'zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka oid ilmiy qarashlari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda Namangan viloyatining sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika va xizmat ko'rsatish sohalaridagi ekologik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, yashil iqtisodiyot modelini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional omillar baholandi. Shuningdek, hududda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlardan biri hisoblanib, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda aholi sonining ko'payishi tabiiy resurslardan foydalanish darajasining oshishiga olib kelmoqda. Bu esa hududda ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy rivojlanishga integratsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tahlillar natijasida viloyatda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi yetarli emasligi aniqlandi. Sanoat korxonalarining asosiy qismi an'anaviy energiya manbalariga tayanishi atmosfera chiqindilarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, ularni amaliy joriy etish darajasi pastligicha qolmoqda. Ayniqsa, quyosh energetikasini rivojlantirish uchun tabiiy imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramay, investitsion faollik va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi kuzatilmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan samarasiz foydalanish, yer degradatsiyasi va kimyoviy o'g'itlardan ortiqcha foydalanish ekologik muammolarni kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, chiqindilarni boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi ekologik yuklamaning oshishiga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun normativ-huquqiy asoslar mavjud bo'lsada, ekologik monitoring, yashil investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarur. Shu bois hududda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va yashil investitsiyalarni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar asosida Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot modelini samarali shakllantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim ekanligi aniqlandi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
- ekologik boshqaruv tizimini raqamlashtirish;
- "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish;
- chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish;
- resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni amalga oshirish.

Mazkur chora-tadbirlar hududning ekologik barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va yashil iqtisodiyot modelining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Raqobatbardosh yashil iqtisodiyot va farovon mintaq modelini

Mintaqalarda yashil iqtisodiyot modelini shakllantirish bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur model iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va aholi farovonligini o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot modeli tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etishga asoslanadi. Shu sababli hududlarni barqaror rivojlantirishda institutsional mexanizmlarning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur modelning asosiy tarkibiy qismlariga institutsional, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-innovatsion mexanizmlar kiradi. Institutsional mexanizmlar davlat boshqaruvi, normativ-huquqiy baza, ekologik monitoring va davlat-xususiy sheriklik tizimlarini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy mexanizmlar esa yashil investitsiyalarni jalb qilish, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali yashil iqtisodiyotning moliyaviy asoslarini shakllantiradi. Ekologik mexanizmlar chiqindilarni qayta ishlash, karbon chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan.

Shuningdek, modelda ijtimoiy-innovatsion omillar ham muhim o'rin tutadi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish, yashil bandlikni kengaytirish, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash yashil iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur omillarning o'zaro integratsiyasi natijasida hududlarda iqtisodiy samaradorlik oshadi, ekologik xavfsizlik mustahkamlanadi va aholi turmush sifati yaxshilanadi. Natijada raqobatbardosh, ekologik barqaror va innovatsion mintaqaviy iqtisodiyot modeli shakllanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqalarda yashil iqtisodiyot modelini shakllantirish ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda aholi farovonligini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, Namangan viloyati misolida olib borilgan tahlillar hududda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish uchun yetarli iqtisodiy va tabiiy salohiyat mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik monitoring tizimini rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlarida bir qator institutsional muammolar saqlanib qolmoqda.

Tahlillar asosida hududda yashil iqtisodiyot modelini rivojlantirishning samaradorligi ko'p jihatdan institutsional mexanizmlarning takomillashganlik darajasiga bog'liqligi aniqlandi. Jumladan, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va ekologik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Shuningdek, yashil investitsiyalarni jalb qilish, energiya tejamkor va ekologik innovatsion texnologiyalarni joriy etish hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot davomida ekologik madaniyatni rivojlantirish, yashil bandlikni kengaytirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash yashil iqtisodiyot modelining uzoq muddatli barqaror rivojlanishida muhim omil ekanligi ta'kidlandi.

Umuman olganda, mintaqalarda yashil iqtisodiyot modelini shakllantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga hamda barqaror hududiy rivojlanishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar kelgusida Namangan viloyati hamda boshqa hududlarda yashil iqtisodiyot siyosatini samarali amalga oshirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. Ahror Soliyev. O'zbekistonda turizm geografiyasi va mintaqaviy rivojlanish. Toshkent, 2020.
3. Qobiljon Abdurahmonov. Mintaqaviy iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish asallari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
5. Musakhanov Q. A. Improving Tourism Development Mechanisms Based on Regional Specialization. Academic Journal of Digital Economics and Stability 2026, 39(2), 274-278.
6. Q. A Musakhanov., Conceptual Principles of Implementing Business Processes In the Development of Tourist Areas Of the Region. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance 2026, 7(2), 535-538.